



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

KO‘Z KONSEPTINI TASHKIL ETUVCHI KONSTITUENTLARING O‘ZBEK VA ISPAN TILLARIDAGI IZOMORFIK VA ALLOMORFIK XUSUSIYATLARI

Shabanova Sevinj Djumaliyevna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada “ko‘z/ojo” konseptining o‘zbek va ispan tillaridagi lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu konseptni tashkil etuvchi semantik konstituentlarning izomorfik, ya’ni umumiy-universal, hamda allomorfik, ya’ni milliy-madaniy farqlanuvchi belgilarini aniqlashdan iborat. Tahlil jarayonida o‘zbek tilidagi “ko‘z” va ispan tilidagi “ojo” komponentli frazeologik birliklar, metaforik ifodalar hamda paremiologik birliklar asosiy material sifatida olindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda mazkur konsept idrok, anglash, kuzatuv, nazorat, hissiy holat va estetik baholash kabi umumiy semantik maydonlarda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilida “ko‘z” konsepti “nazar”, “ko‘z tegishi”, asrash va mehr semantikasi bilan faol bog‘lansa, ispan tilida “ojo” konsepti “mal de ojo”, oghlantirish, hushyorlik va jamoatchilik e’tibori markazi ma’nolarida keng qo‘llanadi.

Kalit so‘zlar: konsept, ko‘z, ojo, izomorfizm, allomorfizm, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, somatik konsept, frazeologizm.

ИЗОМОРФНЫЕ И АЛЛОМОРФНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОНСТИТУЕНТОВ КОНЦЕПТА «ГЛАЗ» В УЗБЕКСКОМ И ИСПАНСКОМ ЯЗЫКАХ

Шабанова Севиндж Джумалиевна

Узбекский государственный университет мировых языков, базовый докторант

Аннотация

В данной статье в сопоставительно-сравнительном аспекте анализируются лингвокогнитивные и лингвокультурологические особенности концепта «глаз/ojo» в узбекском и испанском языках. Основная цель исследования заключается в выявлении изоморфных, то есть универсально-общих, и алломорфных, то есть национально-культурно дифференцированных, признаков семантических конститuentов данного концепта. В процессе анализа в качестве основного материала были использованы фразеологические единицы, метафорические выражения и паремиологические единицы с компонентами «ko‘z» в узбекском и «ojo» в испанском языках. Результаты исследования показывают, что в обоих языках данный концепт проявляется в таких общих семантических полях, как восприятие, познание, наблюдение, контроль, эмоциональное состояние и эстетическая оценка. Вместе с тем в узбекском языке концепт «ko‘z» активно связан с семантикой сглаза, защиты и привязанности, тогда как в испанском языке концепт «ojo» широко употребляется в значениях «mal de ojo», предупреждения, бдительности и центра общественного внимания.

Ключевые слова: концепт, глаз, ojo, изоморфизм, алломорфизм, сопоставительное языкознание, лингвокультурология, соматический концепт, фразеологизм.

ISOMORPHIC AND ALLOMORPHIC FEATURES OF THE CONSTITUENTS FORMING THE CONCEPT OF “EYE” IN UZBEK AND SPANISH LANGUAGES

Shabanova Sevinj Djumaliyevna

Uzbekistan State World Languages University, Doctoral student

Abstract

This article analyzes the linguocognitive and linguocultural features of the “eye/ojo” concept in Uzbek and Spanish from a comparative perspective. The main purpose of the study is to identify the isomorphic, that is, universal-common, and allomorphic, that is, nationally and culturally differentiated, features of the semantic constituents forming this concept. During the analysis, phraseological units, metaphorical expressions, and paremiological units containing the components “ko‘z” in Uzbek and “ojo” in Spanish were used as the main research material. The results demonstrate that in both languages this concept is manifested within common semantic fields such as perception, cognition, observation, control, emotional state, and aesthetic evaluation. At the same time, in Uzbek the concept of “ko‘z” is actively

associated with the semantics of the evil eye, protection, and affection, whereas in Spanish the concept of “ojo” is widely used in the meanings of “mal de ojo,” warning, vigilance, and the center of public attention.

Keywords: concept, eye, ojo, isomorphism, allomorphy, comparative linguistics, linguoculturology, somatic concept, phraseological unit.

Zamonaviy tilshunoslikda til inson tafakkuri, madaniy xotirasi va milliy dunyoqarashini ifodalovchi murakkab semiotik tizim sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada “konsept” tushunchasi markaziy nazariy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Konsept insonning borliq haqidagi bilimlari, tajribasi, qadriyatlarini va madaniy tasavvurlarini oʻzida jamlovchi mental birlik sifatida izohlanadi [3; 4]. A. Wierzbicka konseptlar orqali milliy madaniyat, mentalitet va xalqning oʻziga xos dunyoqarashi namoyon boʻlishini taʼkidlaydi [2].

Somatik konseptlar, yaʼni inson tana aʼzolari nomlari asosida shakllangan birliklar, tilning obrazli va madaniy qatlamida alohida oʻrin tutadi. Inson tashqi olamni, avvalo, oʻz tanasi va sezgi organlari orqali idrok etadi. G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga koʻra, abstrakt tushunchalarning katta qismi insonning jismoniy tajribasi asosida shakllanadi [1]. Shu jihatdan “koʻz/ojo” konsepti insonning vizual idroki bilan bogʻliq eng faol somatik konseptlardan biridir.

Oʻzbek va ispan tillarida “koʻz/ojo” konsepti keng frazeologik imkoniyatga ega. Oʻzbek tilida “koʻzi ochilmoq”, “koʻz tegmoq”, “koʻz ostiga olmoq”, “koʻz qorachigʻidek asramoq” kabi birliklar mavjud boʻlsa, ispan tilida “abrir los ojos”, “mal de ojo”, “echar un ojo”, “ser la niña de sus ojos” kabi ifodalar faol qoʻllanadi [6; 7; 8]. Ushbu birliklar semantik jihatdan ayrim umumiyliklarga ega boʻlsa-da, ularning milliy-madaniy talqini har bir tilning oʻziga xos konseptual manzarasi bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada qiyosiy-chogʻishtirma, konseptual, komponent va lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida oʻzbek va ispan tillaridagi “koʻz/ojo” komponentli frazeologik birliklar, maqollar, metaforik ifodalar hamda xalqona tasavvurlar tanlandi. Oʻzbek tilidagi materiallarni izohlashda Sh. Rahmatullayevning frazeologik lugʻatiga, ispan tilidagi birliklarni tahlil qilishda esa Real Academia Española lugʻati va ispan paremiologik manbalariga tayanildi [6; 7; 8].

Izomorfik xususiyatlar deganda ikki tilda bir xil yoki oʻxshash semantik vazifa bajaruvchi birliklar nazarda tutiladi. Allomorfik xususiyatlar esa har bir til va madaniyatga xos farqlanuvchi semantik, pragmatik va lingvomadaniy belgilar sifatida talqin qilinadi.

Asosiy qism

“Koʻz/ojo” konseptining izomorfik xususiyatlari

Oʻzbek va ispan tillarida “koʻz/ojo” konseptining izomorfik xususiyatlari, eng avvalo, insonning universal sezgi tajribasi bilan bogʻliq. Har ikki tilda koʻz tashqi olamni qabul qilish, idrok etish, kuzatish va baholash vositasi sifatida konseptuallashadi. Bu holat “koʻrish — bilishdir” konseptual modeli asosida shakllanadi. Masalan, oʻzbek tilidagi “koʻzi ochilmoq” birligi insonning avval anglamagan haqiqatni tushunib yetishini bildiradi. Ispan tilidagi “abrir los ojos” iborasi ham aynan shunday semantik vazifani bajaradi. Demak, har ikki tilda fiziologik koʻrish jarayoni aqliy anglash jarayoniga koʻchiriladi [1; 6; 7].

Bu oʻxshashlik tasodifiy emas. Inson voqelik haqidagi maʼlumotlarning katta qismini koʻrish orqali qabul qiladi. Shu sababli koʻz konsepti koʻplab tillarda bilish, anglash, idrok va xabardorlik semantikasi bilan bogʻlanadi. Oʻzbek tilidagi “koʻzi yetmoq”, “koʻrib-bilib turmoq” kabi birliklar ham ispan tilidagi “ver claro” — “aniq koʻrmoq/aniq tushunmoq” birligi bilan mazmunan yaqinlik hosil qiladi. Bunda “aniq koʻrish” obrazidan “aniq anglash” maʼnosi kelib chiqadi.

Ikkinchi muhim izomorfik belgi kuzatuv va nazorat semantikasidir. Oʻzbek tilidagi “koʻz ostiga olmoq”, “koʻz-quloq boʻlmoq”, “koʻzdan kechirmoq” birliklari ispan tilidagi “echar un ojo”, “tener los ojos puestos en algo”, “poner los ojos en alguien/algo” ifodalari bilan funksional jihatdan mos keladi [6; 7]. Ushbu birliklarda koʻz oddiy koʻrish organi emas, balki nazorat qiluvchi, kuzatuvchi va baholovchi vosita sifatida namoyon boʻladi. Masalan, “bolaga koʻz-quloq boʻlmoq” birligi gʻamxoʻrlik va nazoratni bildirsa, ispan tilidagi “echar un ojo al niño” ham “bolaga qarab turmoq” maʼnosini beradi.

Uchinchi izomorfik xususiyat emotsional holatni ifodalash bilan bogʻliq. Har ikki tilda insonning ichki kechinmalari koʻz orqali tashqi ifodasini topadi. Oʻzbek tilida “koʻziga yosh olmoq”, “koʻzlari chaqnamoq”, “koʻzlari kulmoq”, “koʻzlari mungga toʻlmoq” kabi birliklar mavjud. Ispan tilida esa “ojos llenos de lágrimas”, “brillar los ojos”, “ojos tristes”, “ojos alegres” kabi birliklar xuddi shu semantik maydonga mansubdir [7]. Bu birliklarda koʻz inson ruhiy holatining koʻzguisi sifatida talqin qilinadi. Demak, har ikki tilda koʻz tashqi va ichki olamni bogʻlovchi semiotik belgi vazifasini bajaradi.

To'rtinchi izomorfik belgi estetik baholash bilan aloqador. O'zbek tilidagi "ko'zga yoqimli", "ko'zni quvontirmoq", "ko'z oldida gavdalanmoq" birliklari ispan tilidagi "agradable a la vista", "deleitar la vista", "entrar por los ojos" kabi ifodalar bilan yaqin semantik munosabatga ega. Bunda ko'z go'zallikni idrok qiluvchi va baholovchi markaz sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, ispan tilidagi "entrar por los ojos" iborasi biror narsaning, avvalo, tashqi ko'rinishi orqali insonda ijobiy taassurot uyg'otishini bildiradi. O'zbek tilida ham "ko'zga tashlanmoq", "ko'zga chiroyli ko'rinmoq" kabi birliklar shunga yaqin ma'noda ishlatiladi.

Beshinchi o'xshashlik qadrlash va asrash semantikasida namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi "ko'z qorachig'idek asramoq" birligi juda aziz, qadrlil narsani ehtiyot qilish ma'nosini bildiradi. Ispan tilida esa "ser la niña de sus ojos" iborasi kimningdir eng suyuqli, eng aziz insoni bo'lish ma'nosida qo'llanadi [7]. Har ikki tilda ham ko'zning eng nozik va muhim qismi orqali qadrlash, asrash, mehr va himoya semantikasi ifodalanadi. Bu jihat "ko'z/ojo" konseptining emotsional-baholovchi qatlamini tashkil etadi.

Shunday qilib, o'zbek va ispan tillarida "ko'z/ojo" konseptining izomorfik xususiyatlari quyidagi semantik maydonlarda namoyon bo'ladi: idrok va bilish; kuzatuv va nazorat; emotsional holat; estetik baholash; qadrlash va asrash. Bu umumiyliklar insonning universal jismoniy va kognitiv tajribasi bilan izohlanadi.

"Ko'z/ojo" konseptining allomorfik xususiyatlari

"Ko'z/ojo" konseptining allomorfik xususiyatlari har bir til egasining milliy-madaniy tafakkuri, e'tiqodlari, ijtimoiy tajribasi va kommunikativ odatlari bilan belgilanadi. O'zbek va ispan tillarida bu konseptning umumiy semantik yadrosi mavjud bo'lsa-da, uning ayrim ma'no qatlamlari turlicha rivojlangan.

O'zbek tilida "ko'z" konsepti, avvalo, "nazar" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. "Ko'z tegmoq", "yomon ko'z", "ko'zi qattiq", "ko'zdan asramoq" kabi birliklarda ko'z insonning ruhiy-energetik ta'sir kuchiga ega bo'lgan ramziy unsur sifatida talqin qilinadi [6]. Bu birliklarda ko'z nafaqat ko'rish organi, balki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kuch sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, "bolaga ko'z tegdi" degan ifoda xalqona qarashlarda bolaning kasallanishi yoki holsizlanishini yomon nazar bilan bog'laydi.

Ispan tilida ham bu semantikaga yaqin "mal de ojo" birligi mavjud. U ham "yomon ko'z", "nazar tegishi" ma'nolarini bildiradi [7; 8]. Biroq ispan madaniyatida "mal de ojo" ko'proq xalqona e'tiqod, diniy-mifologik tasavvur va himoya amaliyotlari bilan bog'liq. O'zbek madaniyatida esa "ko'z tegishi" kundalik nutqda ancha faol ishlatiladi va bolalar, chiroyli buyumlar, yangi uy, yangi kiyim, muvaffaqiyat yoki farovonlik bilan bog'liq vaziyatlarda tez-tez uchraydi. Demak, ikki tilda mazkur semantika mavjud bo'lsa-da, uning nutqiy faolligi va madaniy qo'llanish doirasi farqlanadi.

O'zbek tilida "ko'z" konsepti mehr, yaqinlik va himoya semantikasini ham kuchli ifodalaydi. "Ko'z qorachig'idek asramoq", "ko'zidan uzoq qilmaslik", "ko'zining oq-u qorasi" kabi birliklar o'zbek tilida emotsional yaqinlik va ehtiromlarni bildiradi. Bu birliklarda ko'z inson uchun eng aziz a'zo sifatida qabul qilinadi va shu asosda qadrlil inson yoki narsa bilan obrazli bog'lanadi. Ispan tilida "ser la niña de sus ojos" iborasi ushbu semantikaga yaqin bo'lsa-da, u ko'proq shaxsga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilida esa bu model shaxsga ham, narsa-buyumga ham, Vatan, farzand, ilm, meros kabi mavhum qadriyatlarga ham nisbatan qo'llanishi mumkin.

Ispan tilining o'ziga xos allomorfik belgilaridan biri "ojo" so'zining ogohlantirish va ehtiyotkorlik undovi sifatida faol qo'llanishidir. "¡Ojo!" iborasi ispan tilida "Diqqat!", "Ehtiyot bo'li!", "Hushyor bo'li!" ma'nolarida mustaqil pragmatik birlik sifatida ishlatiladi [7]. O'zbek tilida esa "ko'z" so'zi bunday mustaqil undov vazifasida qo'llanmaydi. O'zbek tilida bu vazifani "ehtiyot bo'li", "diqqat qil", "hushyor bo'li" kabi birliklar bajaradi. Demak, ispan tilida "ojo" konsepti nutqiy vaziyatda ogohlantirish signali sifatida ham ishlaydi.

Yana bir allomorfik xususiyat ispan tilida "ojo" konseptining ijtimoiy e'tibor va mojaro markazi semantikasi bilan bog'lanishidir. Masalan, "estar en el ojo del huracán" iborasi "bo'ron markazida bo'lmoq", ya'ni jamoatchilik muhokamasi, keskin tanqid yoki mojaro markazida qolish ma'nosini bildiradi [7]. O'zbek tilida bu iboraning aynan "ko'z" komponentli muqobili faol emas. O'zbek tilida bunday ma'no "voqealar markazida bo'lmoq", "tanqidlar markazida qolmoq", "jamoatchilik e'tiborida bo'lmoq" kabi birliklar orqali ifodalanadi. Bu esa ispan tilida "ojo" komponentining makoniy markaz va ijtimoiy bosim semantikasida kengroq ishlatilishini ko'rsatadi.

O'zbek tilida esa "ko'z" konsepti uyat, hayo va ijtimoiy munosabatlar bilan ham bog'liq holda ishlatiladi. Masalan, "ko'ziga qaray olmaslik" iborasi uyat, aybdorlik yoki tortinish holatini bildiradi. "Ko'z-ko'z qilmoq" birligi esa biror narsani namoyishkorona ko'rsatish ma'nosida qo'llanadi. Bu birliklar

o‘zbek madaniyatida ijtimoiy baho, andisha, uyat va tashqi nazar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ispan tilida ham “mirar a los ojos” yoki “no poder mirar a los ojos” kabi birliklar mavjud bo‘lsa-da, ularning madaniy yuklamasi o‘zbek tilidagi “ko‘ziga qaray olmaslik” birligidagi andisha va ijtimoiy uyat semantikasi bilan to‘liq bir xil emas.

Shuningdek, o‘zbek tilida “ko‘z” komponentli birliklar ko‘pincha yuqori darajadagi emotsional-ekspressivlikka ega. “Ko‘zim uchdi”, “ko‘zimga issiq ko‘rindi”, “ko‘zim qiymaydi”, “ko‘zim yoridi” kabi ifodalar xalqona nutqda juda faol qo‘llanadi. Ispan tilida esa “ojo” komponentli birliklar orasida pragmatik, kommunikativ va vaziyatga yo‘naltirilgan birliklar nisbatan ko‘proq ko‘zga tashlanadi: “¡Ojo!”, “echar un ojo”, “tener buen ojo”, “a ojo”, “costar un ojo de la cara”. Bu birliklarda ko‘z ehtiyotkorlik, baholash, taxmin qilish yoki qiymatning yuqoriligi kabi turli pragmatik ma‘nolarni bildiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, o‘zbek tilida “ko‘z” konsepti ko‘proq emotsional, axloqiy va xalqona-madaniy qatlamlarda faol namoyon bo‘ladi. Ispan tilida esa “ojo” konsepti emotsional ma‘nolar bilan birga ogohlantirish, baholash, ijtimoiy e‘tibor, pragmatik munosabat va kommunikativ vaziyatlarni ifodalashda kengroq qo‘llanadi.

“Ko‘z/ojo” konseptining semantik konstituentlari qiyosi

Qiyosiy tahlil asosida “ko‘z/ojo” konseptini tashkil etuvchi konstituentlarni bir necha semantik guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni perceptiv konstituentlar tashkil etadi. Bu guruhda ko‘z ko‘rish, sezish va tashqi olamni idrok qilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi “ko‘z bilan ko‘rmoq”, “ko‘zdan kechirmoq” birliklari ispan tilidagi “ver con los ojos”, “mirar”, “echar un vistazo” birliklari bilan mazmunan yaqin.

Ikkinchi guruh kognitiv konstituentlardir. Bunda ko‘z anglash, bilish, fahmlash, xabardor bo‘lish kabi ma‘nolarni ifodalaydi. O‘zbek tilidagi “ko‘zi ochilmoq”, “ko‘zi yetmoq” birliklari ispan tilidagi “abrir los ojos”, “ver claro” birliklari bilan izomorfik munosabatga kirishadi.

Uchinchi guruh emotsional konstituentlardan iborat. Bunda ko‘z quvonch, qayg‘u, qo‘rquv, hayrat, muhabbat kabi ruhiy holatlarni ifodalaydi. O‘zbek tilida “ko‘zlari kulmoq”, “ko‘ziga yosh olmoq”, “ko‘zi chaqnamoq” birliklari, ispan tilida esa “brillar los ojos”, “ojos llenos de lágrimas”, “ojos tristes” birliklari ushbu guruhga kiradi.

To‘rtinchi guruh aksiologik, ya‘ni baholovchi konstituentlardir. Bunda ko‘z go‘zallik, yoqimlilik, qadrilik yoki salbiy bahoni bildiradi. O‘zbek tilidagi “ko‘zga yoqimli”, “ko‘zga yomon ko‘rinmoq”, “ko‘z qorachig‘idek asramoq” birliklari ispan tilidagi “agradable a la vista”, “ser la niña de sus ojos”, “costar un ojo de la cara” kabi ifodalar bilan qiyoslanadi.

Beshinchi guruh magik-mifologik konstituentlardir. Bu guruh o‘zbek tilidagi “ko‘z tegmoq”, “yomon ko‘z” va ispan tilidagi “mal de ojo” birliklari orqali namoyon bo‘ladi. Har ikki tilda bu semantika mavjud bo‘lsa-da, o‘zbek tilida u kundalik xalqona nutqda nisbatan faolroq, ispan tilida esa ko‘proq folklor, xalq e‘tiqodi va an‘anaviy tasavvurlar bilan bog‘liq holda ishlatiladi.

Oltinchi guruh pragmatik-kommunikativ konstituentlardir. Bu guruhda ispan tili alohida faollik ko‘rsatadi. “¡Ojo!” undovi, “echar un ojo”, “tener buen ojo”, “a ojo” kabi birliklar nutqiy vaziyatda ogohlantirish, qarab qo‘yish, taxmin qilish, baholash kabi vazifalarni bajaradi. O‘zbek tilida esa bunday ma‘nolarning bir qismi “ko‘z” komponentli birliklar orqali, bir qismi esa boshqa leksik vositalar orqali ifodalanadi.

Demak, “ko‘z/ojo” konseptining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikki tilda umumiy semantik yadro mavjud, biroq periferik qatlamlarda milliy-madaniy va pragmatik farqlar kuchliroq namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihatlar konseptning izomorfik va allomorfik tabiatini aniqlashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Muhokama

Qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ispan tillarida “ko‘z/ojo” konseptining semantik yadrosi ko‘p jihatdan o‘xshashdir. Har ikki tilda ko‘z idrok, bilish, kuzatuv, nazorat, hissiy holat va estetik baholash bilan bog‘liq holda konseptuallashadi. Bu o‘xshashlik insonning umumiy biologik va kognitiv tajribasi bilan izohlanadi.

Biroq allomorfik xususiyatlar har bir xalqning madaniy tajribasi bilan belgilanadi. O‘zbek tilida “ko‘z” konsepti ko‘proq nazar, himoya, mehr va emotsional-ekspressivlik bilan bog‘liq bo‘lsa, ispan tilida “ojo” konsepti nazar, ogohlantirish, hushyorlik, jamoatchilik e‘tibori va mojaro markazi kabi ma‘nolarni ham faol ifodalaydi [6; 7; 8]. Bu esa Vladimir Karasik tomonidan ilgari surilgan konseptlarning shaxs, madaniyat va diskurs bilan uzviy bog‘liqligi haqidagi qarashlarga mos keladi.

Xulosa

O‘zbek va ispan tillaridagi “ko‘z/ojo” konseptining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, har ikki tilda mazkur konseptning izomorfik xususiyatlari idrok, anglash, kuzatuv, nazorat, hissiy holat va estetik baholash kabi universal semantik komponentlarda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, allomorfik xususiyatlar milliy-madaniy tafakkur bilan bog‘liq. O‘zbek tilida “ko‘z” konsepti “nazar”, mehr, asrash va hissiy baholash semantikasi bilan ajralib turadi. Ispan tilida esa “ojo” konsepti “mal de ojo”, ogohlantirish, ehtiyotkorlik va ijtimoiy e‘tibor markazi ma‘nolari bilan kengroq pragmatik vazifa bajaradi.

Uchinchidan, “ko‘z/ojo” konsepti ikki tilda ham insonning tana tajribasiga asoslangan bo‘lsa-da, uning obrazli va frazeologik ifodalanishi har bir xalqning madaniy xotirasi, e‘tiqodlari va kommunikativ tajribasi bilan belgilanadi. Shu bois mazkur konsept o‘zbek va ispan tillari lingvomadaniy manzarasida universal va milliy xususiyatlarni birlashtiruvchi muhim somatik konsept sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Wierzbicka A. *Understanding Cultures through Their Key Words*. — Oxford: Oxford University Press, 1997.
3. Степанов Ю.С. *Константы: словарь русской культуры*. — Москва: Академический проект, 2004.
4. Карасик В.И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. — Волгоград: Перемена, 2002.
5. Арутюнова Н.Д. *Язык и мир человека*. — Москва: Языки русской культуры, 1999.
6. Rahmatullayev Sh. *O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati*. — Toshkent: Akademnashr, 2022.
7. Real Academia Española. *Diccionario de la lengua española*. — Madrid: RAE, 2024.
8. Correas G. *Vocabulario de refranes y frases proverbiales*. — Madrid: Castalia, 2000.